

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**ONA TILI VA ADABIYOT DARSALARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Qo'chqorova Gulira'no Yo'ldoshevna**

*Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani*

*103-maktab Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limgak muktabalarida ona tili va adabiyot darsalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, interaktiv metodlardan foydalanish, o'quvchilar ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlikka, o'zaro hamkorlikda ish yuritishga, fikrlarni ravon bayon etishga chorlashi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, adabiyot, dars, innovatsion texnologiya, metod, o'yin masofaviy ta'limgak.*

**Abstract:** *This article argues that the use of innovative technologies in native language and literature lessons at schools, using interactive methods, encourages students to think creatively, solve issues actively, express ideas freely, take initiative, work collaboratively, express ideas in precisely .*

**Keywords:** *native language, literature, lesson, innovative technology, method, game, distance learning and teaching.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование инновационных технологий, использование интерактивных методов на уроках родного языка и литературы в общеобразовательных школах, стимулирование учащихся к творческому мышлению, проявлению инициативы, совместной работе, беглому выражению своих мыслей.

**Ключевые слова:** *родной язык, литература, урок, инновационная технология, методика, игровое дистанционное обучение.*

## KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda "Ta'limgak to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ilgari surilgan masalalar jadal sur'atda umumta'limgak muktabalarida muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Qonun talablariga muvofiq ta'limgak-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish shu kunning talabi bo'lib qoldi. Bu maqsadni amalga oshirish o'qituvchidan izlanishni, ijodkorlikni, o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi. Hozirgi o'quv jarayonida odadtagi dars usullaridan tashqari yangi texnologiya asosida noan'anaviy darslarni tashkil qilish rivojlanib bormoqda. O'quvchilarda ta'limgak olishga bo'lgan ijobjiy intilish va ehtiyojni shakllantirish, o'zaro bellashuv elementlarini joriy etish hamda o'quvchilarda muntazam ravishda o'qishga qiziqish uyg'otish maqsadida yangi zamonaliviy pedagogik va axborot texnologiyalarini izlashda ijobjiy faollikni oshirish zarur bo'lib qoldi. Ta'limgak rivojining buguni va istiqboli bugun sinfda dars berayotgan o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq. Zero, o'qituvchi maktabda asosiy figura

hisoblanar ekan, u o'ziga bildirilgan ishonch, yosh avlod tarbiyasidek murakkab, mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarmog'i zarur.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lif mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lif standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va raxonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qituvchidan an'anaviy darsdan noan'anviy darsga o'tish talab etiladi: Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Noan'anaviy darslarni esa interaktive metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi. Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.

Bu kabi interaktive metodlar va o'yinlarning dars davomida foydalanishi avvalo, pedagog mahorati bilan bogliq. Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savoljavob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o'rganuvchilarni rag'batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o'quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o'gil bolalar va qiz bolalar sonining proporsiyasi, o'zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatları va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo'lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi. Bundan tashqari 45 daqiqqa davom etadigan dars mashg'ulotida harakatli o'yinlarning mavjudligi ha alohida ahamiyatga ega. Chunki, bolalarni charchatmaslik va

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

ularni oqilona tanlangan 3-4 daqiqalik harakatli o'yilar orqali miyaga va mushaklarga dam berish ham ustozning vazifasi hisoblanadi.

Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, hozirgi zamon bilan bog'lash orqali ijtimoiy-siyosiy bilimlarni ham oshirib borish, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berilishi lozim. Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida computer texnologiyalardan foydalanishdir.

Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul Grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

Ta'limg-tarbiya jarayoniga, xususan, til ta'limgiga ham pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, maktablarda ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim. Jumladan:

- yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish;
- uning prinsiplarini ishlab chiqish; - pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashning samarali yo'llarini tanlash va hokazo

Ta'kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'limga yaratish qilinadi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash" 1 uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Ta'limg jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash: Ta'limg texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'limg oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqida guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida ta'limg oluvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim

**XULOSA**

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interfaol metodlar,o'yinlar va computer texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta,oson va tez bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida bilim taksonomiyasiga binoan o'quv maqsadlarining aniqlanishi, o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandard test topshiriqlaridan foydalanish, nazoratning haqqoniyligi, keng qamrovlligini ta'minlaydi. Barcha fanlar qatori ona tili darslarida ham ta'lim oluvchilarga ma'lumot berishda ta'limning ilg'or tajribalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va turli interfaol metodlar asosida ta'lim berish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Qolaversa, zamonaviy ta'lim berishda o'qituvchi kasb mahoratining turli qirralarini namoyon etishi ham bu davr talabidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G'ulomov “O'zbek tili o'qitish metodikasi” Toshkent-1998-yil.